O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI MUZRABOT TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Muzrabot tumani, Onadiyor ko‘chasi 1-uy. 191300, tel.: (+99876) 349-17-26, muzrabod.t@exat.uz

2022 - yil 3 - avgust 626-8-115-Q/22 Muzrabot tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 29-iyundagi PQ-299-sonli hamda shu haqidagi viloyat hokimining 2022-yil 27-iyuldagi 433-8-0-Q/22-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish, tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va ularning bandligini ta’minlash, ijtimoiy moslashuviga hamda kelgusida jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga amaliy ko‘maklashish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 29-iyundagi PQ-299-sonli hamda shu haqidagi viloyat hokimining 2022-yil 27-iyuldagi 433-8-0-Q/22-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish bo‘yicha “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.) Tuman hokimligi rahbarligida ilovada ko‘rsatilgan namunaviy tarkib asosida Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish bo‘yicha “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish masalasini ko‘rib chiquvchi idoralararo doimiy komissiyalar (keyingi o‘rinlarda – Idoralararo komissiyalar) tuzilsin.

4. Belgilansinki, 2022-yil 1-sentabrdan boshlab:

ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi” mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan birinchi navbatda tuman (shahar) budjetlari mablag‘lari hisobidan, yetishmagan qismi bo‘yicha esa – viloyat hamda Termiz shahar va tumanlar mahalliy budjetlari mablag‘lari hisobidan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining o‘n baravari miqdorida beriladi; “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish tartib-taomillari Moliya vazirligining “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali ochiq va shaffof tarzda amalga oshiriladi.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Achildiyev), tuman Moliya bo‘limi (I.Qo`shaqov) birgalikda:

2022-yil 1-sentabrga qadar Idoralararo komissiyalar faoliyatini tashkil etish uchun ularni zarur multimedia materiallari, mebel, kompyuter texnikasi va boshqa asbob-uskunalar bilan ta’minlash choralarini ko‘rsin;

2023-yil va keyingi yillar uchun tegishli budjetlar parametrlarini shakllantirishda ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish bilan bog‘liq xarajatlarni nazarda tutib borsin.

6. Mazkur qarorning ijrosi uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Achildiyev hamda tuman Ichki ishlar bo‘limii boshlig‘i Sh.Narmuratov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **E.J.Alimov**

Muzrabot tuman hokimining
2022 yil 3 avgustdagi
626-8-115-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish bo‘yicha “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”ni berish masalasini ko‘rib chiquvchi idoralararo doimiy komissiyalarning

NAMUNAVIY TARKIBI

1. Lavozimi bo‘yicha — tuman hokimi, *Komissiya raisi*

2. Lavozimi bo‘yicha — tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, *Komissiya raisi o‘rinbosari*

3. Lavozimi bo‘yicha — tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi boshlig‘i

4. Lavozimi bo‘yicha — tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i

5. Lavozimi bo‘yicha — tuman moliya bo‘limi boshlig‘i

6. Lavozimi bo‘yicha — tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i

7. Lavozimi bo‘yicha — tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i

8. Lavozimi bo‘yicha — tuman mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi boshlig‘i

9. Lavozimi bo‘yicha — ichki ishlar organlari hududiy probatsiya inspektori, *Komissiya kotibi*